


## 2019 YIL YABVAR-FEVRAL OYLARIDA QURILISH ISHLARI





Farg'ona viloyatida joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida jami **439,0** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **105,3 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **23,2** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **140,5 %** ni tashkil etdi, Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **291,0** mlrd,so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,4 %** ni tashkil etdi. Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga **124,7** mlrd,so'm qurilish ishlari to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **98,1 %** ni tashkli etdi.

## Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

ulushi (%da)




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **5,3 %** ni;

kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **66,3 %** ni;

Norasmiy sektorlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **28,4 %** ni tashkil etdi.

## Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

jamiga nisbatan (%da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **5,3 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda, Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, "Qo'qon neft gaz parmalash" korxonasi tomonidan bajarilgan va jami qurilish ishlari hajmining **2,9 %** ni tashkil etdi.

Hududda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **66,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **28,4 %** i to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari


<b>№</b>	<b>Shahar tumanlar</b>	<b>2018 yil yanvar-fevral (mlrd,so'm)</b>	<b>2019 yil yanvar- fevral (mlrd,so'm)</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan (%)</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi (%)da</b>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>347,0</b>	<b>439,0</b>	<b>105,3</b>	<b>100,0</b>
1	Farg'ona shahar	80,4	108,1	112,3	24,6
2	Qo'qon shahar	36,1	49,3	114,6	11,2
3	Quvasoy shahar	29,4	35,8	102,0	8,2
4	Marg'ilon shahar	27,8	36,0	107,9	8,2
5	Oltiariq tumani	8,9	12,1	112,1	2,7
6	Qo'shtepa tumani	10,8	13,6	104,1	3,1
7	Bag'dod tumani	25,1	27,1	90,8	6,2
8	Buvayda tumani	8,3	12,2	119,4	2,8
9	Beshariq tumani	7,4	10,7	120,9	2,4
10	Quva tumani	19,8	22,8	96,3	5,2
11	Uchko'prik tumani	13,1	16,4	104,3	3,7
12	Rishton tumani	8,1	9,6	96,8	2,2
13	So'x tumani	7,3	8,6	97,3	2,0
14	Toshloq tumani	9,5	11,8	102,7	2,7
15	O'zbekiston tumani	7,7	9,8	104,6	2,2
16	Farg'ona tumani	18,3	18,9	84,6	4,3
17	Dang'ara tumani	15,6	19,3	102,1	4,4
18	Furqat tumani	6,8	10,7	129,6	2,4
19	Yozyovon tumani	6,6	6,2	78,0	1,4

## Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Xususan, Farg`ona shahrida **108,1** mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,3 %** ga o'sdi, Qo'qon shahrida **49,3** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,6 %** ga o'sdi. Qo'shtepa tumanida **13,6** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,1 %** ga o'sdi. Oltiariq tumanida **12,1** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,1 %** ga o'sdi. Buvayda tumanida **12,2** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **19,4 %** ga o'sdi. Beshariq tumanida **10,7** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **20,9 %** ga o'sdi. Furqat tumanida **10,7** mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,7 %** ga o'sdi.



## Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi, Ularning hajmi **282,3 mlrd,so'mni** tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmining **64,3 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **23,7 mlrd,so'mni** tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami **133,0 mlrd,so'm** to'g'ri kelib, jami qurilish ishlari hajmning **30,3 %** ni tashkil qildi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlaringin mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi



Nodavlat mulkchiligi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **432,2** mlrd.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **98,4** % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,6** %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6,8** mlrd.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **1,5** % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **266,1** %ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi  
“Investitsiyalar va qurilish statistikasi”  
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov  
Aloqa telefoni: (0373) 241-72-75